

O‘ZBEK XALQ MUSIQASI MADANYATI VA UNING TARIXI

Umrzoqova Mohlaroy Muhtarjon qizi

Andijon davlat pedagogika insituti musiqiy ta’lim va san’at yo’nalishi

1- bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada san’at sohasida olib borilayotgan islohatlar jarayonida O‘zbek xalqining yorqin musiqasi uning tarixi butun dunyoga tanilgan maqomlari, bular yuzasidan prizdidentimiz O‘zbek xalq musiqasiga juda katta bergan e’tiborlari yorqin na’moyon qilingan.

Kalit so‘zlar: O‘zbek xalq musiqasi, Maqom, Mushkilot, Nasr, Yunus Rajabiy, Avjlar, Melodika, Tovushlar, Madanyat, Meros, Mustaqillik, An’ana

O‘zbek musiqa madanyati qadimiy va rango-rang, ayni payitda yangi zamon an’analarini o‘zida mujassam etgan holda rivoj topmoqda. Bunda avvalo benazir xalq musiqasi, hozirgi zamon bastakorligi, shuningdek, xalq havaskorligi hamda jo’shqin ommab Estrada ijodyoti kabi shaklan va usluban nihoyatda serjilo jabhalar namoyon bo’ladi.

Istiqilol sharofati bilan milliy-ma’naviy qadriyatlarimizga bo’lgan diqqat e’tibor, unitilayozgan an’analarimiz nitarixan qisqa muddat ichida qayta tiklanishi, mustaqil taraqqiy ettirish maqsadidagi yangilanish, isloh etish jarayonlarida ustuvorlik kasb etadi. Shuningdek, qo’shni va uzoq horijiy mamlakatlari bilan madaniy-musiqiy aloqalarni o’zaro boyitish yo’lida rivojlantirish sa’y- harakatlari ham dolzarb ahamiyatga ega bo’ladi.

Sobiq sho’ro davri musiqasi iskanjalarida bo’g’ilgan o‘zbek musiqa merosining sharq xalqlari an’analari bilan tarixiy aloqalari yangi bosqichga ko’tarildi va ijodiy hamkorlik yo’lga qo’yila boshladi. Aynan shu madaniy aloqalar, musiqaning ilohiy ta’sir kuchi va o‘zbek xalqining boy musiqa merosining ahamiyati va mavqeini, uning Sharq musiqasi bilan mushtarakligini nazarda tutgan O‘zbekistonning birinchi Prizdidenti I.Karimovning sharq “Sharq musiqasining jahon madaniy merosida tutgan o’rni benihoya buyuk . Bu musiqa ming –ming yillardan beri odamlari dilini poklab, ularni ruhan yuksaltirib kelmoqda” degan so’zlari yuqoridagi fikirlar isbotidir.

O‘zbek xalq musiqasi bir ovozli bo’lib, o’zining tarixiy taraqqiyotida juda ko’p hilma-hil fo’rmalarga ega bo’ldi. Ozbek xalq kuylari va ohanglari melodikasida, umumiy tuzilishida hamda usullarida musiqa madanyatining milliy harakterini ko’rsatuvchi hususiyatlar mavjud. Shu bilan birga xalq ijodidagi turli-tuman janorlarning mustaqilligi ba’zi janorlarda, jumladan profisional musiqa tajribasining natijasi hisoblanuvchi ayrim janorlardao’ziga hos kompazitsion yo’llarni vujudga keltirdi

O‘zbek musiqasida maqomlarning vujudga kelishi ajoyib voqeadir. Katta musiqa asarlari hisoblanuvchi maqomlar hozirgi O‘zbekistonda va Tojikistonda juda ko‘p asrlardan beri mavjudligi ma’lumdir. “Maqom” terminining kelib chiqishi lingvistik nuqtai nazardan aniq emas. Masalaning bu tomoni ushbu maqolaning vazifasiga kirmaydi ham. Faqat shuni aytish kerakki, “Maqom” so‘zi ikki mazmunda ishlatiladi. Al Farobiy va Ibn Sinodan boshlab butun O‘rta Osiyo musiqa nazaryotchilari “Maqom” so‘zining ko‘proq aniq bir lad (parda) mazmunida ishlatganlar. Hozirgi kunda maqom ko‘p asrlardan beri saqlanib kelayotgan va hozir mavjud bo‘lgan fol’klor musiqa asarlarini bildiradi

Maqomlarning xalq musiqasining boshqa janorlaridan farqlaydigan harakterli belgilari ularning kattaligi va ko‘p qisimlilikidir. Har bir maqom ikki qisimga: cholg‘u va ashula-cholg‘u yo‘liga bo‘linadi. Buhoroda “Mushkilot” deb ataluvchi birinchi qismi asosiy cholg‘u asboblardan hisoblanuvchi tanbur va doirada hamda turli cholg‘u asboblari ishrirokiida ijro etiladi. Ikkinchi – “Nasr” qismi cholg‘u ansambli jo‘rligida jo‘rligida ashulachilar tamonidan unison ovoz bilan ijro etiladi. Nasr odatda ikki guruppa kuylardan iborat bo‘lib, har bir guruppa Tojikistonda “sho‘be”, O‘zbekistonda “Bo‘lim” deb yuritiladi. Birinchi bo‘limga nasrning asosiy musiqa materyalini tashkil etuvchi kuylar kiradi; ikkinchi bo‘limga esa o‘zining truzilishiga ko‘ra maqomlarning ayrim bo‘laklariga yaqin turuvchi katta formadagi xalq ashulalari tashkil etadi. har bir maqom raqs “Ufor” bilan tamom bo‘ladi.

“Mushkilot” va “Nasr” o‘z navbatidayana katta-katta bo‘laklarga bo‘linadi va bularning hammasining o‘z nomi bor. Shu sababli maqomlar soatlab ijro etiladi.

Maqomlar asrlar davomida og‘zaki xalq musiqasi sifatida saqlanib kelganligi bilan birga, ma’lum o‘zgarishlarga ham uchragan. Hozirgi kunda bu o‘zgarishlarning ahamiyati va harakteri to‘g‘risida fikir yuritish qiyin, albatta. O‘rta Osiyo xalqlarida yaqin yillargacha no‘ta yozuvi bo‘lmaganligi sababli turli davrlarda yaratilgan xalq ijodini avvalgi “redaktsiiyalariga” solishtirib bo‘lmaydi. Yaqin yillardagi musiqa yozuvlari va hozirgi kunda turli ijrolardan yozip olingan na‘munalarni solishtirib ko‘rish bilan musiqiy matnlari ijro etish vaqtida ma’lum o‘zgarishga uchrashini ko‘rish mumkin.

Jamiyat hayotida shunday davrlar bo‘ladiki, o‘z umrini yashab bo‘lgan eski tuzim qonun-qoidalarini yangicha asosda o‘zgartirish, barcha sohalarda keng ko‘lamli islohatlarni amalga oshirish zarurati eng muhim ehtiyoj, kerak bo‘lsa, hayot-mamot masalasi sifatida kun tartibiga chiqadi.

Biz o‘z mustaqilligimizni qo‘lga kiritib, yangi taraqqiyot yo‘liga qadam qoyganimizdan so‘ng xalqimizning xohish-irodasi, asriy orzu-intilishlariga tayangan holda, sho‘ro davridan og‘irmeros bo‘lib qolgan ma‘mury-buyruqbozlik tizimini tubdan isloh qilish, uning o‘rnida mohiyat e‘tibori bilan butunlay yangi erkin bozor munosabatlariga

asoslangan huquqiy davlat, demokratik jamiyat barpo etishga azm-u qaror qildik. Tabiiyki, bu maqsadga erishish uchun qanday strategik yo‘l, isohtalarning qanday shakl va usuli ma‘qul ekani haqida olimlar va mutaxassislar, keng jamoatchilik, el-yurtimiz vakillari bilan birgalikda ko‘p o‘yladik, atroflicha maslahatlashdik. Bu borada taraqqiy topgan davlat misolida o‘zini oqlagan ilg‘or tajribalarni chuqur o‘rgandik.

Eng muhimi xalqimizning hayot tarsi, milliy an‘ana va qadryatlarimizni, aholining ruhi va kayfiyatini ham har tamonlama hisobga oldik. Chunki har qanday islohatning pirovard natijasi avvalo uning zaruriyatini aholining keng qatlamlarini qay darajada tushunishi va qo‘llab- qavvatlash, bu o‘zgarisharning inson hayotiga uning farovonligi oshirishga ko‘rsatadigan amaliy ta‘siri bilan o‘lchanadi. Ana shu haqiqatdan kelib chiqqan holda, odamlarga islohatlarning ma‘no-mohiyatini aniq-ravshan tushin tirib berish, shu asosda jamiyat a‘zolarida ishonch uyg‘otish, ularni bunyodkorlik sari safarbar etish muhim ahamiyatga ega.

Muhtaram birinchi prizidentimiz I.A.Karimov yuqorida ta‘kidlab o‘tgan so‘zlaridan, xalqimizga jonkuyarlikni hamda fidoyilik hissini uyg‘otishda katta hissa qo‘shganlar. Birinchi prizidentimiz aynan san‘at sohasiga bergan e‘tiborlari, o‘zbek xalq musiqasi va uning trixini biz yoshlar uchun keng ko‘lamda saqlanib kelishligiga hissa qo‘shganlar.

Hulosa qilib shuni aytish joizki, o‘zbek xalq musiqasi bizning eng buyuk me‘roslarimizdandir va ularni asrash bizning burchimizdir. Qadimdan to aynan shu kungacha yetib kelgan bizning buyuk tariximiz ya‘ni maqomlarimiz aynan bugungi kunda butun dunyo bo‘ylab tarqalmoqda, bu bizning katta bir yutuqlarimiz desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ana o‘sha o‘zbek xalq musiqasi bugungi kunda nafaqat katta yoshli insonlarni balkim yoshlarni ham ozuqalantirib o‘zgacha tuyg‘u bag‘ishlamoqda. Bugungi kunga kelip yaratilayotgan imkoniyatlar, bizning buyuk tariximiz “Maqomlarni” yanada keng targ‘ib qilish uchun yetarli desak adashmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov. “Yuksak ma‘naviyat- yengilmas kuch” TOSHKENT-2008. 102-103 bet
2. O‘zbekiston san‘ati “ Sharq” nashryot-matba aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriryati TOSHKENT-2001. 104-105 bet
3. Yunus Rjabiy, I.A.Akbarov- O‘zbek xalq musiqasi. Ozbekiston SSR Davlat badiy adabiyot nashiryoti TOSHKENT 1959. 1-2 bet